

Alisher Navoiy
dovridagi
O'zbekiston MK

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:46 (67211)
2018-yil 12-noyabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqarib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

O'QUVCHIGA CHEKSIZ IMKON

Tongda chiqar «Tong yulduzi»,
Yorishadi ko'kning yuzi.
Milliondan oshiq erur,
O'qiydigan o'g'il-qizi.

Qanot yozib uchib borar,
Yuraklarga ko'chib borar.
Eng ko'p kitob o'qiganni,
E'zoz etib, quchib borar.

Kim she'r yozar, kim hikoya,
Kimga kerak yangi g'oya?
Yurakdagi so'zlaringiz,
Bizga yo'llang, shu kifoya.

O'quvchiga cheksiz imkon,
Bellashadi ko'p bilimdon.
Gazetaning o'zi qimmat,
Narxi esa juda arzon!

AXTAMQULI



Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 43-umumta'lim maktabining a'lochi o'quvchilari - Madina Eshmuhammadiyeva, Husniya Boboxonova, Zahro Hamzayeva hamda Muborak Abdurasulova «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini maroq bilan o'qiydilar. Ular hatto sevimli nashriga 2019-yil uchun eng birinchilardan bo'lib obuna bo'lishga ulguridilar.

VAQTINGIZNI BIZ BILAN MAROQLI O'TKAZING!

Aziz o'quvchilar! Hech o'ylab ko'rganmisiz, yurtimiz yoshlari nega «Tong yulduzi» gazetasini sevir mutolaa qilar ekan-a?! Buning sababi oddiy: rang-barang sahifalarimizda berilayotgan iqtidorli va bilimdon yoshlar haqidagi bir-biridan ajoyib maqolalar, bolalar yozuvchi va shoirlari hamda adabiyotga oshno tengdoshlaringiz ijodiga mansub mazmundor she'r va hikoyalar, sehrli ertaklar, aqlni charxlovchi boshqotirmalar ilimga chanqoq tengdoshlaringizning maktabda olgan bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularning kelajak orzulariga ishonch bag'ishlamoqda. Maqsadlari sari qat'iyat bilan odimlashga undamoqda. Shuningdek, gazetaimiz tomonidan o'tkazilayotgan turli ko'rik-tanlovlar yosh mushtariylarimizni ilmning yuksak cho'qqilari sari yetaklamoqda.

SIZ HAM ANA SHUNDAY INTILUVCHAN VA BARKAMOL YOSHLAR SAFIDA BO'LISHNI ISTAYSIZMI? UNDAY BO'LSA, RESPUBLIKA BOLALAR VA O'SMIRLARINING «TONG YULDUZI» GAZETASIGA OBUNA BO'LISHGA SHOSHILING!

Tel:

(71) 244-63-08;

www.tongyulduzi.uz;

e-mail: info@tongyulduzi.uz;

telegram: t-me/tongyulduz

Ha, aytgancha, bu yil obuna mavsumida

**«ENG FAOL SINIF»,
«ENG FAOL MAKTAB»LAR**

Nashr
ko'rsatkichi
198

aniqlanib, ular tahririyatimizning qimmatli sovg'alari bilan taqdirlanadi. Buning uchun har bir sinf va maktab to'lov qog'ozlari haqidagi ma'lumotnomaning nusxasini pochta orqali yoki elektron manzilimizga

yuborishlari lozim.

Shunday ekan, fursatni qo'ldan boy bermang! Vaqt borida qadrdon gazetangizga hududingizdagi aloqa bo'limlarida obuna bo'ling!

Kitoblarning soni emas, ularning
yaxshisi foyda keltiradi.

SENEKA

Bizga ma'lumki,
ta'lim muassasalarida

o'tkaziladigan har bir tadbir, musobaqada va tanlovlar o'quvchilarining
bo'sh vaqtlariga ma'no-mazmun baxsh etibgina qolmay, ularni bilimdon,
zukko, zakiiy o'g'il-qizlar bo'lib voyaga yetishlariga ham xizmat qiladi.

YAXSHI ASAR MUTOLAASI — KO'NGIL BAYRAMI

Yaqinda Toshkent shahar, Bektemir tumanining «Binokor» mahallasida joylashgan 292-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan «Kitobxon o'quvchilar» nomli

qancha ko'p o'qilgani emas, ularning o'quvchiga beradigan ma'naviy ozuqasi muhim ekanligini alohida ta'kidlashdi. Tengdoshlarining kompyuter o'yinlariga sarflaydigan vaqtini kitob mutolaasiga bag'ishlashga chaqirishdi.

— Yaxshi asar mutolaasi ko'ngil bayramidir, — dedi S. Polvonova o'qigan asarlari mazmunini nafaqat o'zbek tilida, balki rus, turk, ingliz tillarida ham to'lib-toshib so'zlab berayotgan o'g'il-qizlarni mamnuniyat bilan kuzatar ekan, — bugun kitobsevar o'quvchilarimiz ko'ngli chin ma'noda bayram qilyapti.

Tadbir g'oliblariga maktab ma'muriyatining faxriy yoriqlari



tadbir ham aynan shunday maqsadda tashkillashtirilgani, shubhasiz. Maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari S. Polvonova, kutubxonachi S. Gulmatova, ota-onalar Kengashi raisi R. Qoraboyev hamkorligida tashkillashtirilgan tadbirida bilim maskanining eng kitobxon o'quvchilari ishtirok etdi. Ta'lim maskanining 7–8-sinf o'quvchilari — Maftuna Ergasheva, Nigina Abdusattorova, Adelyam Alimova, Diana Jumaniyazova, Aliya Jiyanbayeva, Tanya Shuman, Setora Hasanova, Shahnoza Abdurashidovalar o'z chiqishlari, sahna ko'rinishlari orqali kitobning

hamda dunyodagi eng qimmatbaho sovg'a — kitoblar taqdim etildi. Tanlovning keyingi bosqichida jahon adabiyoti namunalaridan o'qish tavsiya etildi. Tumanimizdagi 5 ta umumta'lim maktablari o'rtasida «Eng kitobxon maktab» nomli ko'rik-tanlov o'tkazilsa, biz bajon-u dil qatnashardik va albatta, g'olib bo'lar edik! — deyishdi ilmga chanqoq o'g'il-qizlar.

Binokorlik tengdoshlaringizning kitobxonligiga, bilimi, salohiyatiga bo'lgan ishonchiga, shijoatiga havas qilsa arziydi, shunday emasmi, aziz o'quvchilar?!

Feruza JALILOVA

DEHQON BOBO NE'MATLARI

● Kuni kecha Bektemir tumanidagi 292-umumta'lim maktabida
3-«B» sinf o'quvchilari bilan «Dehqon bobo ne'matlari»
mavzusida tadbir o'tkazildi.

Tadbirning asosiy maqsadi o'quvchilarni tabiatga mehr uyg'otish, dehqon boboning mehnatini qadrlash, milliy qadriyatlarimizni ulug'lash kabi oliyanob insoniy fazilatlarini ulug'lashdan iboratdir.

Yoshlar ittifoqi Bektemir tuman Kengashi bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirida 3-«B» sinf o'quvchilari dehqonlar mehnatining mashaqqatli ekanligini targ'ib etishdi. Noz ne'mat bunyodkorlariga atab she'r va qo'shiqlar ijro etishdi. Dehqonlarning mehnatini ulug'lashdi. Ayniqsa, tadbir davomida o'quvchilar tomonidan ijro etilgan «Boy ota va shum bola» deb nomlangan sahna ko'rinishi tadbirga tashrif buyurgan ota-onalar va o'quvchilarda zo'r taassurot qoldirdi. Chunki sahna ko'rinishida asosiy qahramon shum bolaning olma terish sahnasida boy ota bilan bo'lgan muloqoti, kulgili voqealar orqali namoyish etildi. Ushbu sahna ko'rinishi orqali sinf rahbari

G. Nishonboyeva bog'bonlarning mehnati bilan dasturxonimiz to'kin, turmushimiz farovon ekanligini ta'kidlab o'tdi. Yosh-



lar ittifoqi yetakchisi G. Jumaniyozova tadbirida faol ishtirok etgan o'quvchilar U. Sharipov, A. Shokirov, F. Toshpo'latova va T. Egamberdiyevlarni Yoshlar ittifoqining faxriy yoriqlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirladi.

BILIM VA HUNAR - KOMILLIKKA YETAKLAR

10-MAKTAB



Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi
10-umumta'lim maktabi
o'quvchilari respublikada-
gi tengdoshlariga har so-
hada o'rnak bo'lishmoqda.
Jumladan:



8-«B» sinf
o'quvchisi
Mashhura
Ma'mirova
o'tgan yili
«Jaholatga
qarshi ma'rifat»
tanlovining viloyat
bosqichida
ishtirok etib,
1-o'rinni
egalladi. Tanlovning respublika bosqichida ham muvaffaqiyatli ishtirok etdi.



Mashhura Qarshi shahar «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazidagi rassomlik to'garagining faol a'zolaridan biri.

Yaqinda shaharda bo'lib o'tgan Koreya va O'zbekiston do'stligi mavzusidagi rasmlar tanlovida ham uning chizgan rasmlari koreyalik mehmonlar e'tiborini tortdi va diplom bilan taqdirlandi.



— Yana bir iqtidorli o'quvchimiz Asadbek Raimov 6-«B» sinfda o'qiydi. U yaqinda Shahrisabzda bo'lib o'tgan «Yosh ijodkorlar» tanlovida ixtirochilik yo'nalishida ishtirok etdi va shaharda 1-, viloyat bosqichida 3-o'rinni egalladi, — deydi maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Ma'rifat Nazirova.

— Otamning kasblari ustachilik. Men ham ularning kasblariga qiziqib, ba'zan yangilik kiritishga harakat qilaman. Ixtirolarimdan ota-onam, ustozlarim xursand bo'lishadi. Ularning quvonchi menga ilhom bag'ishlaydi, yangi-yangi innovatsion g'oyalar ustida ishlashga undaydi, — deydi yosh ixtirochi.

Biz ham Asadbekka kelgusida jamiyat taraqqiyoti, yurt rivojiga xizmat qiladigan buyuk ixtirolar kutib qolamiz.

O'tgan yili Qarshi shahrida bo'lib o'tgan kitobxonlar tanlovida 10-«A» sinf o'quvchisi Abror Tursunmurodov 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Ayni paytda «Qanday kitoblar o'qiyapsiz?» degan savolimizga u, «O'qilishi shart bo'lgan 100 ta asarlarni birma-bir o'qib chiqishga harakat qilyapman, Abdulla Qodiriy, O'tkir Hoshimov asarlari meni sehrlab qo'ydi», deb javob berdi.



F. SOYIBJON qizi

SEMINARDA SARDORLAR FAOLIYATI O'RGANILDI



Sinf rahbarim Sevara Jo'rayeva juda talabchan, jonkuyar ustoz. Ularning sa'y-harakati tufayli yaqinda men Yoshlar ittifoqi tuman sardori etib saylandim. Vakolatimdan kelib chiqib, kunora 9 ta sardorning ish faoliyatini nazorat qilib boraman.

Kuni kecha poytaxtimizning Mirobod tuman Yoshlar ittifoqi mahalliy Kengashida o'quv-seminari bo'lib o'tdi. Tadbirga shahrimizning barcha sardorlar Kengashi a'zolari tashrif buyurib, tuman maktablaridagi sardorlar faoliyatini o'rganishdi.

Biz sardorlar bundan keyin ham maktablar-

da bo'ladigan bayramlarda faol qatnashishga hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning qizg'in o'tishiga o'z hissamizni qo'shishga harakat qilamiz.

Ruxshona JALILOVA,
poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 214-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi



KITOB BILAN MUKOFOTLANDIM

Men kitob o'qishni juda yaxshi ko'raman. Bu qiziqishim sabab ko'plab yutuqlarga erishmoqdaman.

Yaqinda maktabimizda o'tkazilgan «Kitob mening taqdirimda» nomli tanlovda 1-o'rinni egallab, tuman bosqichida sovrinli o'ringa sazovor bo'ldim. Bundan tashqari, «Kitob bilan selfi» Respublika internet tanlovida 2-o'rinni egalladim va 1.500 000 so'mlik kitob jamlanmasi bilan mukofotlandim. Bu muvaffaqiyatlarga mutolaaga bo'lgan mehmim tufayli erishyapman, deb o'ylayman.

Shohista SOBIROVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 40-umumta'lim maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi

ISTE'DODLAR O'RNINI TOPDI

Samarqand viloyati, Tayloq tumanidagi 14-umumta'lim maktabi Boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchisi Husnuda Ahmedova tashkillashtirgan o'quv-seminar savol-javoblarga boy o'tdi. Seminarda sardorlarning vazifalari, ularning tatbiq etadigan yangi loyihalari to'g'risida o'zaro fikr almashildi.

Tadbirga har bir sardor loyihalarini videorolik ko'rinishida tayyorlab keldi. Tengdoshlari esa loyihaaning yutuq va kamchiliklari haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. So'ngra, sardorlar oktabr oyida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida hisobot topshirib, yangi oy boshlanishiga tuzilgan rejalari haqida suhbatlashdi. O'tgan oyda muvaffaqiyatga erishgan va tashabbus ko'rsatgan sardorlar rag'batlantirildi.



Shu tumandagi 51-umumta'lim maktabida tashkil etilgan o'quv-seminarda ham bilim maskanining turli yo'nalishlardagi sardorlari qatnashdi. Yig'ilishda maktabda iste'dodli o'quvchilarga berilayotgan imkoniyatlardan keng foydalanish, turli jabhalarda o'zlarini ko'rsata bilish kerakligi haqida so'z bordi. Seminarda qatnashgan 18 nafar Kengash a'zolari hamda maktabning Yoshlar ittifoqi sardori Dilqusho To'xtayeva, iste'dodli yoshlar sardori Marjona Tolibova, Press klub sardori Aziz Ravshanov, siyosiy-huquqiy savodxonlik sardori Laziz Xurramovlar o'zlari amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlari haqida to'xtalib o'tdilar. So'ng, ularning ish rejalari ko'rib chiqilib, maktab yoshlar ittifoqi yetakchisi Sh. Mirzayeva tomonidan tasdiqlandi.



Ozoda TURSUNBOYEVA

«7X7» BELLASHUV O'TKAZDIK

Yaqinda ustozimiz Feruza Rahmatova boshchiligidagi xalq og'zaki ijodi namunalaridan bo'lmish «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostonini o'rgandik.

Doston juda g'aroyib bo'lib, asar kutilmagan voqealarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Undagi mard, jasur, Vatan jonkuyari bo'lgan o'g'lonlar, sabr-toqat va go'zallik ramzi bo'lgan ayol-qizlarning timsollari bizni o'ziga bog'lab oldi. Asar bilan tanishib bo'lgach, u asosida «7X7» bellashuvini o'tkazdik. Tanlov juda chiroyli va maroqli o'tdi. Shu bois, olgan taassurotlarimizni sizlar bilan bo'lishgimiz keldi.

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchilari

MENING FIKRIM

ONA TILI JONKUYARI BO'LSAM...

Bolaligimdan adabiyotga mehmim bo'lakcha. O'quvchilik paytimda biror so'z ustida har jihatdan mushohada yuritishga harakat qilardim. Shuningdek, qalam va daftarim doimiy hamrohim edi.



Uy vazifalarimni bajarib bo'lgan zahoti yozishga unnar edim. Tan olaman, boshida husnixatim unchalik chiroyli emasdi. Biroq, maqsad aniq bo'lsa, intilish va harakat zoye ketmas ekan. Yuqori sinfga o'tgach, ona tili va adabiyotdan o'tkaziladigan fan olimpiadalarida ishtirok etib, tuman va viloyat bosqichlarida g'olib hamda sovrindorlar qatorida e'tirof etildim. Ayniqsa, viloyat miqyosidagi insholar tanlovlari tashlashgan yutuqlarim meni orzularim tomon ishdan qadam tashlashga undadi.

Olga bilimlarimni yanada mustahkamlab, oliyog' talabasi bo'ldim. To'rt yil filologiya yo'nalishida tahsil olib, mana hozir ona tili va adabiyot fanidan o'quvchilarga saboq berib kelyapman. Bugun ta'lim tizimi tobora yangilanib, islohotlarga yuz burmoqda. Bu o'z navbatida, ona tilini o'qitish metodikasiga ham yangiliklar olib kirish, fanni boshqa fanlar bilan bog'lagan holda o'rgatishni taqozo etadi. Bunda qardosh va chet tillarining o'rni va ahamiyati juda katta.

Men bugun yosh mutaxassis sifatida o'quvchilarga ona tilimizning nazariy asoslarini o'rgatish bilan birga, ularning og'zaki va yozma savodxonligini oshirishga astoydil bel bog'laganman. Bu borada o'z ustimda yanada ko'p ishlab, chinakam ta'lim fidoyisi, jonkuyari bo'lishni istayman. Zero, ona tili millatimiz g'ururi, uni o'rganish va o'rgatish, kelajak avlodga bezav yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Shohruh IBODULLAYEV,
Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi 2-AFCHO'IMning ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Kitob bo'lsin senga yor,
Bo'lmagin bee'tibor!

Tong
yulduzi

ZEBOXON «TONG YULDUZI»GA CHIQDI

**Xonamga qo'lida bir dasta qog'oz ko'tarib
kirgan ustoz va shogird bilan suhbatlashdim:**



— O'quvchimning she'rlarini ko'rib bersangiz, — deya so'z boshladi ustoz. Shogird yuzi qizarib, ko'zlarini pirlatgancha menga yozganlarini uzatdi. Daftarga ko'z yugurtirdim. Hali ustidan juda ko'p ishlaydigan bo'sh satrlar ekan. «O'quvchini bu bilan hayratlantirib bo'lmaydi. Sen borliqqa o'zingni o'tli nigohing bilan boqib, ko'nglingda kechganlarini rangli tasvirlashga harakat qil. Ijodkor musavvirdek tabiatni jonlantirib qog'ozga tushira olishi kerak»ligini unga tushintirdim. O'zini Zeboxon Qo'chqorova deya tanishtirgan qizimiz, Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 131-umumta'lim maktabining 7-sinfida o'qirgan. Ona tili va adabiyot, rus tili, geografiya fanlariga qiziqishi balandligini gapirdi. Bo'sh paytlarida ko'proq kitob o'qib, she'rlar mashq qilishini aytdi. Ayniqsa, musiqa faniga zavqi balandligini alohida ta'kidladi.

— Raqs jon-u dilim, — deydi Zebo. — Ammo kitob o'qishning o'zni boshqacha.

Bolalikning beg'ubor orzulari uni yuksak cho'qqilar sari undayotganini angladim. Demak, bejiz u «Tong yulduzi»ga chiqishni orzu qilmagan, bir kun kelib, Zeboxon dunyoni balandan turib kuzatish baxtiga erishsa, ajabmas.

AXTAMQULI

Kuni kecha Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 22-umumta'lim maktabida «Assalom, O'zbekiston» teledasturining faxriy jurnalisti Po'lat Xudoyberganov, bolalar shoiri Dilshod Rajab hamda shoir Soyib Mirzolar ishtirokida ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

USTOZ-SHOGIRDLAR MUSHOIRASI

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining bolalar va o'smirlar adabiyoti Kengashi a'zosi, iste'dodli bolalar shoiri Dilshod Rajabning bolalik yillari, adabiyotning sirli olamiga kirib kelishiga sababchi bo'lgan — «Tarnovdagi muzqaymoq», «Besh chanoqli oq paxta» she'rlari haqidagi ajoyib fikrlari barchada katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, ijodkorning «Siz aziz bolajonlarni yurish-turishingiz, to'polon-u sho'xliklaringizni kuzatib, ilhom olaman. She'rlarim ham ana shu kuzatuvlarim mahsuli. Masalan, bir do'stim ilk bor tramvayni ko'rganida, «Poyezdning bolasi», deya atagandi. Oradan 20 yil o'tib, «Poyezdning bolasi» nomli hazil she'rimni yozganman», deya aytgan so'zlari o'quvchilarni hayratga soldi.

darajasiga ko'tarilganligi, bu borada yoshlarga yaratilayotgan keng ko'lamli shart-sharoitlar ha-



POYEZDNING BOLASI

Bahorgi ta'til payti,
Shaharga kelgan Sayfi.
Tramvayda yurganin,
Maqtab der xolasiga:
«Mazza qilib mindim-da,
Poyezdning bolasi»...

Shuningdek, Dilshod Rajab bugun yurtimizda kitobga bo'lgan munosabat davlat siyosati

qida alohida to'xtalib, o'quvchilarga «Dunyodagi eng qimmatli maslahatchi, ilm xazinasi bo'lmish kitobga mehr qo'ying. U sizning chin ma'nodagi do'stingiz. Kimki kitobni sevsa, uni qalbdan ardoqlasa, barcha orzu-niyatlariga erishishi, shubhasiz», deya maslahatlar berdi. Tadbirda mehmonlar hamda yosh ijodkorlar o'zlarining she'rlaridan namunalar o'qib berishdi.

Ustoz-shoirlar ularga oq yo'l tilab, o'zlarining kitoblaridan taqdim etdilar.

Manzura UBAYDULLAYEVA

YO'QOTILGAN XAZINA

Kunlardan bir kun donishmanddan: «Umringizda hech xato qilganmisiz?» deb so'rabdilar. «Ha», debdi donishmand. «Shunday bir xazinamni yo'qotganim uchun o'zimni sira kechira olmayman. Men uni o'z qo'lim bilan yo'qotganman. Bu bekor o'tgan kunlarim, behuda kechgan yillarimdir. Mana shu xazinani hech qachon topolmayman. Agar qayta tug'ilganimda edi, o'sha o'tgan damlarimni foydali ishlarga sarflagan bo'lardim...»

Odatdagiday ish kuni tahririyat telefoni jiringladi. Salom-alikdan so'ng, poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 11-umumta'lim maktabi direktori Nilufar Oripova bizlarni ta'lim maskanida bo'ladigan navbatdagi ijodiy uchrashuvga taklif etdi. Biz esa bu taklifni mamnuniyat ila qabul qildik.

Maktab foyesida yuqori sinf o'quvchilari yig'ilgach, tadbir boshlandi. Avval maktab o'quvchilari barchaga o'z musiqiy chiqishlarini namoyish etdi. 9-«B» sinf o'quvchisi Robiya Saidahmadova «Navoiy vorislari» tanlovida tumanida 1-o'rinni egallagan faol o'quvchi bo'lgani bois, o'zi yod olgan she'rlardan ifodali o'qib, barchaning o'qishiga sazovor bo'ldi. Ijodiy uchrashuvga biz bilan birga tashrif buyurgan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

a'zosi, shoir Axtamquli bolalarga vaqtning qadri, undan unumli foydalanish haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. Shuningdek, ustozlar o'g'itiga amal qilib, a'lo baholarga o'qish orqali inson ulkan

muvaqqafiyatlarga erishishi mumkinligini ta'kidladi. Shoir so'zini «O'quvchiga cheksiz imkon» nomli she'ri bilan yakunladi. Zalda gulduros qarsaklar yangradi.

— Ayni paytda bilim



maskanimizda 961 nafar o'quvchi tahsil oladi, — deydi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dildora Sobirova. — Maktabimizdagi barcha ustozlar o'z kasbining fidoyilari, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Yaqinda tumanda o'tkazilgan «Mumtoz adabiyot shaydosi» ko'rik-tanlovida maktabning besh nafar o'qituvchisi Behbudiyning «Padarkush» asaridan parcha namoyish etib, 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Shuningdek, yurtimizdagi osoyishta hayotning qadriga yetish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, yosh avlod ongida ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini jo etish maqsadida, 5-sinf o'quvchilari o'rtasida «Men shu aziz Vatan farzandiman», 6-sinf o'quvchilari o'rtasida «Vatan oilamdan boshlanadi» mavzusida ijodiy ishlar tanlovi muntazam o'tkazib boriladi. Qolaversa, o'quv maskanimizda el sevgan san'atkorlar bilan tez-tez ijodiy uchrashuvlar tashkil etiladi. O'ylaymanki, bu kabi tadbirlar o'quvchilarning bo'sh

vaqtini mazmunli o'tkazish, olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ana shunday uchrashuvlardan yana biri Olmazor tumanidagi 261-umumta'lim maktabida ham bo'lib o'tdi. Maktabning 3-, 4- va 5-sinf o'quvchilari o'zlari yod olgan she'rlardan o'qib, mutolaani ulug'lovchi sahna ko'rinishlari namoyish etdi. Shuningdek, 29-BMSMning «G'unchalar» raqs dastasi a'zolari ijrosida sho'x kuy-qo'shiqlar yangradi.

Shundan so'ng, «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati xodimlari so'zga chiqib, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati, yosh avlod kamoloti yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlar haqida so'zlab berishdi.

Aziz o'quvchilar! Maqolamiz boshida ta'kidlaganimizdek, vaqtni bekor sarflamang, uni behuda o'tishiga yo'l qo'ymang. Chunki donishmand aytganiday, pul yoki buyum yo'qolsa, topilishi mumkin, ammo tildan qimmatliroq vaqtni ortga qaytarishning iloji yo'q. Shunday ekan, vaqtni foydali ishlarga sarflang.

Nodira NAZAROVA

Poytaxtimizning Shayxontohur tuman maktablarida 5-11-sinf o'quvchilari o'rtasida «Men yosh ijodkor» insholar tanlovi bo'lib o'tdi. Hay'at a'zolari tomonidan eng sara deb topilgan insholarni gazetamiz sahifasida chop etishni lozim topdik.

YURTIMNING MAFTUNKOR QUYOSHI

**Vatan, sening nomingni,
Doim kuyga solaman.
Farzandlik burchim oqlab,
Senga sodiq qolaman.**

Vatan! Bu biz tug'ilib o'sgan, kindik qonimiz to'kilgan zamin. Men mana shu tinch yurtida tug'ilganimdan baxtiyorman. Chunki ona diyorimiz O'zbekiston o'zining maftunkor tabiati, cheksiz imkoniyatlari, mehnatkash va bunyodkor xalqi, osmon-o'par tog'lari-yu yam-yashil qir-adirlari, so'lim bog'lari-yu chamanzorlari, zilol suv-lari-yu musaf-



fo havosi, unumdor tuprog'i-yu bol kabi ne'matlari bilan mashhur jannatmakon o'lkadir. Davlatimiz biz yoshlar timsolida buyuk kelajakning egalarini ko'radi. O'qib-o'rganishimiz, hunar egallashimiz uchun barcha sharoitlar muhayyo. Bizdan esa faqatgina puxta bilim olish, kasb-hunar sirlarini egallash talab qilinadi.

Men kelajakda jurnalist bo'lishni o'z oldimga maqsad qilib qo'rganman. Gazeta va jurnallar o'qib, televideniye, radio orqali berilayotgan dolzarb mavzulardagi chiqishlarni tinglab, tomosha qilib, bilimdon, zukko jurnalist opa-akalarimga havasim keladi. Shuning uchun bu kasbga mening yuragimda o'zgacha ishtiyoq uyg'ongan va jurnalist bo'lish uchun hozirdan tinmay o'qib izlanypman. Ona tili, adabiyot, rus va ingliz tili kabi fanlarni puxta o'rganyapman. Ko'proq she'rlar yod olib, ijodiy insholar yozib, so'z boyligimni oshirishga harakat qilyapman. Darsdan bo'sh vaqtlarimda turli tillarda badiiy asarlar mutolaa qilyapman. Dono xalqimizning: «Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir» naqliga amal qilib kelmoqdaman. Shu o'rinda bizga o'z bilimlarini o'rgatib, ta'lim-tarbiya berayotgan fidoyi ustozlarimga minnatdorchilik izhor etaman.

Ishonchim komil, yurtimiz rivojlangan mamlakatlar ro'yxatining eng yuqori pog'onalaridan joy oladi va dunyo bizdan ko'p narsalarni o'rganadi. Navoiy, Bobur, Amir Temur, Buxoriy, Abu Ali ibn Sinodek buyuk daholarimiz nomi va o'zbek degan nom dunyo turguncha ulug'lanaveradi. Men kelajakda Vatanimizni ana shunday tasavvur qilaman.

Tuprog'iga cho'p suqsang, azim daraxtga aylana-digan, bir kun ko'rmasa, quyosh ham sog'inadigan jannatmakon o'lkamning osmoni hamisha musaffo, go'zal va eng asosiysi, tinch bo'lsin.

**Yurtimizni tark etmasin, farovonlik,
Abadiy porlasin tinchlik quyoshi!**

**Durdona HIKMATULLAYEVA,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
157-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi**

**It always seems impossible
until it's done.**

THE DEFINITE ARTICLE

This article is used in front of a noun when speaker believes the listener knows exactly what speaker is referring to.

e.g. *Open the door.*

We use the definite article with a superlative adjective:

e.g. *Nargiza is the most beautiful girl in our class.*

We use the definite article to refer to people or object that are unique.

e.g. *The sun is shining.*

We use the definite article before ordinal numbers.

e.g. *I called you third time yesterday.*

We use the definite article with adjectives, to refer a whole group of people.

e.g. *Davron gives a lot of money to the poor. He is generous.*

We use the definite article with clauses introduced by only.

e.g. *You are the only person who can do it.*
Use the definite article with names of geographical areas, rivers, mountain ranges, groups of islands and oceans.

e.g.

He comes from the Africa.

The Pacific ocean is the biggest ocean in the world.

The Amudarya is one of the longest rivers in the Asia.

Use the definite article with countries that include the words republic, kingdom, states in their names.

e.g. *Otabek is visiting the United States.*

Use the definite article with newspaper names.

e.g. *Pupils like reading the Tong Yulduzi.*

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

SPECIAL DAY!

Today is the unusual day for Sumbula's family. This day is her mother's birthday. She is going to cook an apple cake for her mother as a present.

Help her cook the cake. There is given list of many ingredients. Your task is read and check what is necessary for apple cake.

- | | |
|-----------|--------------|
| 1. Flour | 2. Apple |
| 3. Sugar | 4. Margarine |
| 5. Water | 6. Salt |
| 7. Pepper | 8. Apple jam |



WHO IS LEARNED?

Read and mark suitable definition

- | | |
|----------------------------------|------------------------------|
| 1. There is much more to be done | You are a good boy |
| 2. Ingredients | To call her immediately |
| 3. That's my boy | We have a lot do to |
| 4. Call her right back | The things to prepare a food |
| 5. Slam the door | Making a loud noise |

Ma'mura G'ULOMOVA

READ, FIND AND WRITE

Read the sentence and write down which word you think is the verb.

- I think about it a lot.
- Run fast!
- I eat 3 meals a day.
- Let's sing a song.
- Jump over the fence.
- I like playing football.
- Sardor plays the piano every day.
- Listen carefully.

WHO? WHAT? WHERE?

Akmal has a horse. Akmal and the horse live on the farm. The horse sleeps in the barn at night. Akmal sleeps in his house.

Akmal puts a saddle on the horse so he can take it for a ride. The saddle fits on the horse's back. With the saddle on, Akmal can ride the horse.

Who has a horse? _____

What did Akmal put on the horse? _____

Where does the horse sleep? _____



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

Dinora ABDULLAJONOVA

KITOB

Qo'lga oldim kitobni,
Bilim hamda odobni.
Undan o'qib, o'rgandim,
So'nmas nurli oftobni.

Ilm misoli daryo,
Kitob nurafshon dunyo.
O'qib, oshar tafakkur,
Deymiz unga tashakkur!

Gulsanam MUHAMMADJONOVA,
Farg'ona viloyati, Uchko'prik tuma-
nidagi 20-umumta'lim maktabining
4-«G» sinf o'quvchisi



ONA MEHRI

Mehribondir men uchun onam,
Uning mehri qanchalar aziz.
Qayga bormay men bilan hamdam,
Mehri tog'dek turar yuzma-yuz.

Nasihatin yodda saqlayman,
Dilim to'ri onam uchun joy.
Ona rozi Xudo rozidir,
Men uchun u Quyosh hamda Oy.

Sarvinov NE'MATULLAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Denov tumanida-
gi 75-umumta'lim maktabining 8-sinf
o'quvchisi



DARAXTLAR

Libosga aylanar turfa yaproqlar,
Kurtaklar gullarga aytadi alyor.
Daraxtlar tabiat mehrini oqlar,
Oftob ular uchun kuylaydi yor-yor.

Tark etsa tanasin bevafo barglar,
Ma'yuslik domiga cho'kar daraxtlar.
Kuzning havosidan junjikib tani,
Tabiat qo'ynida sukunat saqlar.

Gulchiroy DAVRONBEKOVA,
Andijon shahridagi
Muhammad Yusuf nomidagi Davlat ixtisos-
lashtirilgan maktab-internati o'quvchisi

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi.
Boshi o'tgan sonlarda)

Aql haqida hech o'ylab ko'rgan-
misan, ey mening aqli nabiram?
O'h-ho'-o'...

Aql bu Ollohning buyuk ne'mati. U
ne'mat faqat inson zotiga berilgan.
Bo'lmasa, yer yuzida qanchadan
qancha Olloh yaratgan jonzotlar bor.
Inson ulardan ana shu aqli bilan farq
qiladi. Xo'sh, aql o'zi nima? Uni ko'z
bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab, sezgi
bilan sezib bo'ladimi, darsan? Yo'q,
mening qiziquvchan nabiram. Sen ay-
tayotgan ko'z ham, qo'l ham, sezgi ham
umuman, tanangdagi barcha a'zolar
aqlga xizmat qiladi. Uning xohishi,
irodasi, buyrug'ini kutib turadi. Aql-
ning mo'jizaligi ham shunda. U go'yo
inson tanasidagi mayoq, uni boshqarib
turuvchi
Yo'lchi yul-
duz. Aqlni
joiz bo'lsa,
shaffof bir

narsaga o'xshatish mumkin. Unga
zarracha ham chang yoki g'ubor
tushmasligi, doimo yarqirab turishi
zarur. Uni yarqirataadigan ham, xira
qiladigan ham odamning o'zi. Aql
nimadan oziqlanadi? Ilmdan, kuza-
tishdan, tahlildan. Yana bolalikka
qaytishga to'g'ri keladi. Aql bolalikda
qancha yaxshi oziqlansa, shaffoflash-
sa, ulg'ayganda shunchalik samara
beradi. Tib ilmining yulduzi bo'lgan Ibn
Sino bobomiz o'n sakkiz yoshigacha,
o'sha davrning barcha meditsinaga
oid kitoblarini o'qib, o'rganib bo'lgan-
lar. Abu Rayhon Beruniy bobomiz
o'smir yoshidayoq insonlar uchun
foydali yoki zararli bo'lgan giyohlarni
o'rganib, fanga olib kirgan. Dunyoda
ilk bor samoviy yoritgichlar harakatini
o'rganib, yulduzlar xaritasini yaratgan
Mirzo Ulug'bekning bu ilmga qiziqi-
shi bolalikdan boshlangan. Jahongir
bobomiz Amir Temur to' ustida tik turib,
ikki qo'lida qilich sermab, o'ynatgan.
Quduqdan to'rt kishi chig'irida tortib
oladigan mesh to'la suvni bir qo'llari-
da tortib olgan. O'smir yoshlaridayoq

Erkin MALIK,
O'zbekiston
Respublikasida xizmat
ko'rsatgan jurnalist



shunaqa polvon bo'lganlar. Ham
shoh, ham shoir Murzo Bo'bur haz-
ratlari-chi? O'n ikki yoshida Andijon
taxtiga o'tirib, yurti yovlardan qo'ri-
gan. Bolalikda olingan ilmning mevasi
bilan bog'liq bunday misollarni ko'plab
keltirish mumkin. Hazrat Navoiy boba-
miz «Bola-
likda yig'
ilmning
mag'zin»
deb bekor-

AQL HAQIDA

ga nasihat qilmaganlar.

Xo'sh, aql qachon xiralashadi? Or-
tiqcha, foydasiz, bekorchi mashg'ulot-
lardan. Misol uchun, o'ynang, sport-
ning biror turi bilan shug'ullanang.
Lekin me'yordan chiqmang. Bir ishga
ilmingiz ham yetmaydi, kuchingiz
ham, lekin urinasiz. Bari foydasiz.
Telefonda qo'shiq eshitasiz, o'yin
o'ynaysiz, o'rtoqlaringizga oldi-qochdi
«SMS»lar yuborasiz, gap sotasiz,
giybatga berilasiz. Vaholanki, aqlingiz
bulardan qaytarib turibdi. Siz bo'lsa,
baribir aqlning dushmani bo'lgan
shayton vasvasasiga uchyapsiz. Vaqt
foydagamas, zararga ishlayapti.

Xalqimiz: «Bilimlilar ming yashar,
bilimsizlar bir yashar», deydi. Bun-
ga ming yillar osha nomlari yashab
kelayotgan yuqorida aytilgan ulug'la-
rimiz yorqin misoldir. Yana «Bilimsiz
birni yiqar, bilimni mingni yiqar» ham
deyishadi. Bularning bari aqlning
tananasi va aqlning samarasidir,
bolam...

(Davomi bor)

SHE'R YOLG'ONNI XUSHLAMAS

Tinglang, nima derkan bu bechora dil,
Uning aytganidan chiqa olmaydiz.
Qiyналgan umrini aytmoqda ko'ngil,
Undan boshqasini yoza olmaydiz.

Bunda yurak hokim, ijodkor asir,
Jilovlangan otdek bosh egar inson.
She'r kuchi bunchalar bo'lmasa axir,
Qaydan bo'lar edi dunyo nurafshon.

Yurakning so'zida ko'rkamlik bisyor,
Bu so'zda topilmas sira kam-ko'stlar.
Axir san'at aro mashhur bir gap bor,
Dunyoni go'zallik qutqarar, do'stlar.

Asli yozib bo'lmas yolg'onni she'rga,
Balki iloji bor yozganman, darsiz?!
Yolg'onni o'xshatmang beqiyos she'rga,
Hayot mukammalmas, haqiqiy she'rsiz.

Nasim RO'ZIYEV,
Qarshi shahridagi
Abdulla Oripov nomidagi Davlat ixtisos-
lashtirilgan maktab-internatining 9-sinf
o'quvchisi

ENG YORQIN YULDUZ

Men ham bir baxtiyor o'zbek farzandi,
Kelajagi buyuk zamin dilbandi.
Bu so'zdan hech kimsa o'g'irolmas yuz,
Mening kelajagim – eng yorqin yulduz.

Yurtim ta'rifini kuylayin desam,
Xushhavo bulbul ham menga jo'r bo'lar.
Muqaddas zaminda tatiyapman tuz,
Demak, kelajagim – eng yorqin yulduz.

Vatanim jamolin tasvirlasam gar,
Bir nafis kapalak qog'ozga qo'nar.
Zaminini tark etar mana yana kuz,
Mening kelajagim – eng yorqin yulduz.

Shahribonu OQMAMATOVA,
Toshkent shahri, Bektemir tumanidagi
290-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

OGOHLIKKA QO'YILGAN QADAM

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, ularni yot g'oyalar ta'siridan himoyalash, huquqiy bilimlarini boyitish, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilmoqda, tanlov va tadbirlar o'tkazilmoqda.



likning salbiy oqibatlarini tasvirolovchi devoriy gazetalari, rasmlar va insholar bilan ishtirok etishdi.

Tanlov yakunida hakamlar hay'atining xulosasiga ko'ra, 49-umumta'lim maktabi jamoasi tayyorlagan devoriy gazeta a'loga baholandi. Rasmlar tanlovida 50-umumta'lim maktabi, insholar tanlovida esa 18-umumta'lim maktabi o'quvchilari g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Ana shunday tadbirlardan biri Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 65-IDUMda bo'lib o'tdi. «Biz jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi birlashamiz» shiori ostida o'tgan tanlovda tumandagi 66 ta umumta'lim maktablari-ning 8–11-sinf o'quvchilari ishtirok etishdi.

Ichki ishlar xodimlarining kasb bayramiga bag'ishlangan mazkur tadbir ishtirokchilari bu sharaflı kasb egalari-ning mashhaqqatli xizmatini aks ettiruvchi, shuningdek, jinoyatchilik, huquqbuzar-

Nurbek QIDIRALIYEV,
Muhayyo MAMATOVA

Bir kuni dadam uyga asal olib keldilar. Kechgi ovqatdan so'ng asal surtilgan non yedim. Oyim, «Uxlashdan oldin, albatta, tishlaringni yuvgin, bo'lmasa, tishingga qurt tushadi», dedilar.

ERINCHOQLIK SABAB...



Odatda har kuni tishlarimni yuvarдим, ammo o'sha kuni negadir xayolimdan ko'tarildi. Yarim kechada tishimning qattiq og'riyotganidan uyg'onib ketdim. Oyimni uyg'otganimda, ular, «Ana, ko'dingmi, tishingga qurt oralabdi», dedilar va tishimni avval tozalashim kerakligini tayinladilar. Yarim kecha bo'lsa-da, tishlarimni yuvib, og'riq qoldiruvchi dori ichib uxladim. Ertasi kuni shifokor asal tishimning emal qatlamini yemirganini, agar ular har kuni ikki marta yuvilmasa, kariyes rivojlanishini, so'ngra uni yemirishini aytdi. Yana erinchoqlik qilmasdan, tanimiz ham, fikrlashimiz ham doim sog'lom bo'lishi uchun sportning biror turi bilan shug'ullanishim kerakligini tayinladi...

Shu voqeadan keyin erinchoqlik ko'pgina narsalarga sabab bo'lishini angladim. Tishlarimni davolatgach, ularni har kuni ertalab va yotishdan oldin yuvishni o'zinga odat qildim.

Madina TURSUNBOYEVA,
poytaxtimizdagi 59-DIUMning 4-«F» sinf o'quvchisi

QO'LI BALAND O'G'LONLAR

Sport – sog'lik garovi. Shu bois, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, yosh avlodni ommaviy tarzda sportga jalb etish borasida qator ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. Buning samarasi o'laroq, farzandlarimiz orasidan yangi-yangi chempionlar yetishib chiqmoqda.

Shu kunlarda Tailandda gandbol bo'yicha o'g'il bolalar o'rtasida «IHF Inter-Continental Trophy» xalqaro musobaqasi o'tkazilmoqda. Quvonarlisi, mazkur nufuzli turnirda vakillarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. Jumladan, terma jamoamiz guruh bahslarida Hindiston termasini 44:31, Xitoy Taypeyi vakillarini 38:36 hisobida mag'lub etdi. Bu orqali gandbolchilarimiz guruh bahsining so'nggi turida qanday natija qayd etilishdan qat'iy nazar, final bosqichiga yo'l oldi.

Sportchilarimizga navbatdagi bellashuvlarda omad va zafarlar tilaymiz.

«SPARTAK» – CHEMPION

Poytaxtimizda tashkil etilgan «Hamdo'stlik kubogi-2018» musobaqasi yakunlandi.

Turnirda futbolchilarimizdan tashqari Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Rossiya Federatsiyasidan kelgan jamoalarning 14 yoshgacha bo'lgan futbolchilari g'oliblik uchun o'zaro bahs olib bordi.

«Bunyodkor» akademiasining o'quv-mashg'ulot maydonida xalqaro turnirning final bahsi bo'lib o'tdi. Unda Toshkentning ikki jamoasi – «Spartak» va «Paxtakor» klublarining yosh futbolchilari o'zaro bellashdi. Yakunda spartakchilar raqiblarini 1:0 hisobida mag'lub etib, chempionlikni tantana qildi.

S. TURSUNOV

MAKTAB FAXRI

Odina Serikbayeva Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi. U darsdan bo'sh vaqtlarida Nurafshon shahridagi bolalar va o'smirlar sport maktabi qoshidagi taekvando mashg'ulotlariga muntazam qatnashib keladi.



Odina yaqinda o'tkazilgan sport maktabi kubogida 1-o'rinni egalladi. E'tiborlisi, u sal avval poytaxtimizda o'tkazilgan respublika chempionatida 26 kg vazn toifasida 2-o'rinni qo'lga kiritgandi. Viloyat birinchiligida ham o'z vazn toifasida 1-o'rin sohibi bo'ldi.

– Odina chiroyli odobi, tirishqoqligi bilan sinfdoshlariga o'rnak. Har safar musobaqadan qaytganda, o'rtoqlariga o'z taassurotlarini hayajon bilan so'zlab beradi. Odina hozirda nafaqat sinfimiz, balki maktabimizning faxriga aylangan.

Maktab «A'lochilar taxtasi» hamda sinf «Kamalak» burchagi»dan surati o'rin olgan qizaloqqa maktabdoshlari havas bilan qarashadi.

Shukrulla G'ULOMOV





BEG'AMBOYNING OLAMI

Qadrli o'quvchilar! Iste'dodli adib Abdulla Ayizovning quvnoq she'rlari, qiziqarli lavhalari, shuningdek, «O'zimizning Beg'amboy» hajviy qissasidan ayrim parchalarni gazetamiz sahifalari orqali o'qigansiz.

Yaqinda «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan ljodkorning «Polvon yig'lagan tun» qissalar to'plami nashr etildi. Kitobdan o'rin olgan «Polvon yig'lagan tun» qissasida or-nomus, ota-ona bilan faxrlanish hissi ulug'lansa, «O'zimizning Beg'amboy» qissasida esa loqayd, bilimsiz va hunarsiz kishi biror-bir maqsadiga erisha olmasligi hajv ostiga olinadi. Asardagi voqealarning yumorga



boyligi o'quvchida beixtiyor kulgi uyg'otadi. Asar qahramoni Beg'amboy hayot qiyinchiliklariga duch kelgach, uning «ko'zi ochiladi». Bilimli va mehnatkash bo'lsagina, hayoti mazmunli bo'lishini tushunadi va ilm egallashga astoydil kirishadi... Sodda va beg'ubor Beg'amboy g'oyibona do'stingizga aylanishiga shak-shubha yo'q.

Ishonamiz!


BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«O» HARFLI KROSSVORD

Quyida ta'riflari bayon etilgan so'zlar shaklda «o» harflari bilan kesishadi.

Eniga: 5. Gaz modda. 6. Telekanal. 9. Rus olimi. 12. Kuzpishar quruq meva. 13. Xorazm viloyati tumani. 14. Avtomobil «yuragi». 17. Savdo maskani. 18. Qashqadaryo viloyatidagi shahar. 19. Qon beruvchi. 21. Ro'zg'or buyumi. 27. Harbiylar belgisi. 28. Boshqoli don chiqiti. 29. Buxoro viloyati tumani. 32. Teatr arbobi, O'zbekiston xalq artisti. 33. Andijon viloyatidagi shahar. 34. Rus yozuvchisi.

Bo'yiga: 1. Drama asari qahramonining nutqi. 2. Tog'likdagi o'tish qulay maskan. 3. Xitoyda ixtiro qilingan yozuv ashyosi. 4. «Yulduzli tunlar» romani muallifi. 7. «Qasoskorning oltin boshi» romani qahramoni. 8. Poliz ekini. 10. Bilim sohibi, zukko inson. 11. Raqamli o'yin. 15. Sopoldan yasalgan idish. 16. Bug'doy to'pguli. 20. Gazmolga pardo berish ashyosi. 22. Otash, alanga. 23. O'zbek estrada san'ati asoschisi, ustoz xonanda. 24. Fizik, radio qurilmasi ixtirochisi. 25. Yanchilgan boshqoli don chiqiti. 26. «Bolalar» estrada guruhi rahbari, san'atkor. 30. Qardosh millat. 31. Milliy uski libos.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



Imona sho'x qizaloq,
Toleyi erur porloq.
Nigohidan chaqnar o't,
U doim yurar quvnoq.

BUKILUVCHAN SMARTFON



Xitoy poytaxti Pekin shahrida bo'lib o'tgan anjuman-da «Rouyu Technology» kompaniyasi

dunyodagi ilk bukiluvchan smartfon «FlexPai»ni namoyish etdi. Gadget 8-seriyadagi Qualcomm Snapdragon protsessorida ishlaydi hamda 7,8 dyuymli AMOLED ekran bilan jihozlangan.

Qurilmani yaratish paytida uning displeyi jiddiy sinovlardan o'tkazilgan. Smartfon umumiy hisobda bukish, burash, cho'zish va yuqoridan tashlanishdan iborat 200 mingdan ko'proq sinovdan o'tgan.

Ushbu apparat Android tizimi ostida ishlaydi. Smartfon yaqin kunlarda Xitoy bozoriga chiqariladi. Narxi esa 1291 dollarni tashkil qiladi. Uning qolgan davlatlarda sotuvga chiqarilishi borasida hozircha ma'lumot yo'q.

Internet manbalari asosida
Sherali TOSHNIYOZOV tayyorladi